



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “18” aprel

BUYRUQ № 42

Toshkent sh.

**“Xarajatlar – ishlab chiqarish jadvalini tuzish bo‘yicha uslubiy nizom”ni  
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, xarajatlar – ishlab chiqarish jadvalini tuzish bo‘yicha xalqaro statistika amaliyotidan kelib chiqib, statistika uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Xarajatlar – ishlab chiqarish jadvalini tuzish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 12- fevraldagi “Xarajatlar – ishlab chiqarish jadvalini tuzish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 2- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Direktor**

**B. Begalov**